



ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA LEKSIK-SINTAKTIK TAKRORLAR

Egamov Umid

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Mamatqulov Azizbek Rustamovich

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

Ro'ziqulov Shohruh ilhom o'g'li

Guliston davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15387103>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30th April 2025

Published: 10th May 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Erkin Vohidov - XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri. U o'z uslubiga ega bo'lgan adib. Shoir she'riyati xalq og'zaki ijodiga hamohang she'riyat bo'lib, takrorlarga boyligi, badiiy san'atlar va uslubiy vositalarning keng qo'llanganligi bilan farqlanib turadi. Ushbu maqolamizda Erkin Vohidov she'riyatida qo'llanilgan takrorlarning leksik-sintaktik turlarini tadqiqi, ularda nutq birliklarining qo'llanishi, ma'no anglatishi, uslubiy vazifasi kabi jihatlarni tadqiq qilishi haqida fikr yuritimiz.

Takrorning barcha turlari, ko'rinishlari singari leksik takrorlar ham o'z ifoda shakliga va tasvir usuliga ega. Erkin Vohidov she'riyatida takror birliklar she'r ta'sirchanligini ta'minlagan. Bunday ta'sirchanlik shoir she'rlarida anafora, mukarrar, epifora takrorlari vositasida namoyon bo'lgan. Ayniqsa, anafora takrori Erkin Vohidov she'riyatida eng ko'p qo'llangan takror bo'lib, bunda misralar boshidagi takrorlar muayyan uslubiy vazifa bajarishga xizmat qilgan. Bunday takrorlarda, asosan, so'zlar vositasida ifodaviylik o'ziga xos shaklda namoyon bo'lgan. Takrorning bu kabi shakllarida faqat leksik birlik takrorlanmasdan, o'rni bilan sintaktik birliklarning takrorlanishi ham kuzatiladi. Bu holat Erkin Vohidov she'riyati uchun ham xos xususiyatdir. Shu sababli bunday takrorlarni leksik va leksik-sintaktik takror shaklida o'rganishni lozim topdik. Quyida takrorlarning anafora va epifora shakllarini tahlil qilamiz.

a) anafora

Anafora deb nomlanuvchi ushbu usul misra, matn boshidagi so'zning parallel holda takroridan iborat bo'lib, nutq figurasi deb ham yuritiladi [1,47] Anafora ba'zi manbalarda boshlang'ich so'z takrori deb ham yuritiladi. Boshlang'ich so'z takrori so'zlovchining hayajoni va diqqati qaratilgan tushunchani ko'rsatadi va ifodalilikni oshiradi, parallelizmni mustahkamlaydi [2,283]

Erkin Vohidov she'riyatida takrorning ko'plab turlari mavjud bo'lib, anafora takrori badiiy-uslubiy usullardan biridir. Shoir o'z she'rlarida anafora takroridan mohirona foydalangan. Bunday she'rlar sirasiga shoirning "Xayrlashuv", "Shum bola", "She'r kechasi", "Teranlik" kabi o'nlab she'rlarini kiritishimiz mumkin.

Usmon Azim “Xayrlashuv.” she’rida “xayr sizga” va “xayr” anaforalari qo’llagan. She’rda “xayr sizga” so’zi uch marta anafora shaklida takrorlangan. Ikki marta “xayr” shaklida takrorlangan. Har bir takrorda, ya’ni takrordan takrorga bu so’zning qimmatiy ma’nosi kengayib, misralarning ta’sirchanligi ortib borgan:

Xayr sizga, moviy Kavkaz tog’lari,

Xayr sizga, toshqin Kura va Zangu.

Xayr sizga, Artashatning bog’lari,

Yuragimdan o’chmagaysiz siz mangu.

Xayr, Sevan, zangori ko’l, yaxshi qol,

Xayr senga, xumor ko’zli Azganush,

Xayr endi, ko’rishguncha, jonginam.....[4,10]

Ko’rinib turibdiki, keltirilgan misollardagi har misrada *qo’llanilgan anafora takrorlari* misralardagi ma’noni umumlashtirgan. Bu esa shoirning xalq tilining bilimdoni ekanligini bildiradi.

Erkin Vohidov she’riyatidagi anaforalar asarning badiiyligi uchun xizmat qilgan. Shoirning boshqa she’rlarida anafora she’rning turli qismlarida takror kelgan.

1. Bandning birinchi va ikkinchi misrasida:

Mayli, umrim abadiy emas,

Mayli, yashay faqat bir nafas,

Lekin meni oyga qilib teng,

Shu’laldan yasab koshona,

Quyosh sari uzatgan xalqning [4,11]

2. Bandning ikkinchi va uchinchi misrasida:

Boshi uzra bo’lay parvona.

Mayli, so’ng o’t chirmashsin tanga,

Mayli, meni quchsin alanga.

Faqat bo’lib Dankoning qalbi

4. Bandning barcha misralarida takror qo’llanishi:

So’radim, da’atan jim qoldi bog’lar,

So’radim, cho’kkanday tuyuldi tog’lar.

So’radim, chor atrof ma’yus, bemajol —

Ko’rindi behol

yoki

Bitta yig’in — Kotibiyat,

Bitta yig’in — Rayosat.

Yolg’on endi davlat ishi,

Yolg’on endi Siyosat. [4,15]

5. Bandning uchinchi ,to’rtinchi va beshinchi misralarida bir xil takror

qo'llanadi:

Teranlikni kidirmadim ummonlardan,

Insonlardan topdim uni, insonlardan.

Teranlik bu — nur yog'ilgan yuzlardadir,

Teranlik bu — o'ychan boqqan ko'zlardadir,

Teranlik bu — aytilmagan so'zlardadir. [5,10]

Anaforaning bandlar doirasidagi takrori ham turli shakllarda bo'lib, ular ketma-ket ikki bandning birinchi misrasining bir xil birlik bilan boshlanishi, biror bandning so'nggi misrasi keyingi bandning dastlabki misrasi shaklida takror kelishi kabi bir qancha shakllarda takrorlangan. Bunday takror she'r qismlari – bandlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi va turli xil uslubiy vazifalar bajarib keladi

b) epifora

Erkin Vohidov she'riyatida epifora takroriga ham alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur takror shoir she'riyatiga o'zagacha jozibadorlik va xalqchilik baxsh etgan. Epifora – badiiy takror turlaridan biri. "Epifora (gr. epi – so'ng, phoros – olib boruvchi) so'zlaridan olingan [3,253] bo'lib, misralar oxiridagi tovush, so'z yoki so'z birikmasi takroridan iborat.

Epifora takrorning boshqa turlari singari hozirgi zamon o'zbek she'riyatida keng qo'llanmoqda. Erkin Vohidov she'riyatida epiforaning turli xil shakllarini uchratamiz. Ular turlicha uslubiy ma'no ifodalab, she'riy misralarning o'ziga xos jozibasini ta'minlagan. Shoirning "**Inson**" she'rida *o'zing* so'zi epifora shaklida takror qo'llanadi:

Sobitu sayyorada

Inson o'zing, inson **o'zing**.

Mulki olam ichra bir

Hoqon o'zing, sulton **o'zing**.

Sobit o'z ma'vosida,

Sayyor fazo dunyosida,

Koinot sahrosida

Karvon o'zing, sarbon **o'zing**.

Shams — dil taftingdadur,

Sayyoralar kaftingdadur,

Keng jahon zabtingdadur,

Bog'bon o'zing, posbon **o'zing**.

Bu yorug' dunyo nadur?

Koshonadur, vayronadur

Senga mehmonxonadur,

Mehmon o'zing, mezbon **o'zing**... [5,1].

Yoki:

Onaizoring — **zamin**,
Tanho yo 'g'u boring — **zamin**,
Xasta bemoring — **zamin**,
O 'g 'lon o'zing, darmon o'zing,
Bag 'rida yotquchi — **sen**,
Ne'matlarin totquchi **sen**,
Tig' bo'lib botquchi — **sen**,
Paykon o'zing, qalqon o'zing.
Marsga to'p otquvchi — **sen**,
Zuhroni uyg'otquchi — **sen**,
Uyquda qotquchi — **sen**,
Uyg'on o'zing, uyg'on o'zing.
Kelding olamga, demak,
Etmas uni so'rmak, emak,
Erni etmog'ing kerak
Bo'ston o'zing, rizvon o'zing.
So'zga ham poyon **bo'lur**,
Yozsam yana devon **bo'lur**.
Rustami doston **bo'lur**,
Doston o'zing, devon o'zing. [5,2]

She'rning keyingi bandlarida epifora takrori sifatida "zamin", "sen", "bo'lur" so'zlari qo'llanilgan. Ko'rinib turibdiki, shoir she'rlarida takror birliklarning qo'llanishi, ma'no anglatishi o'ziga xos shaklda yuzaga chiqqan.

Erkin Vohidov she'riyatida epifora takrori turli xil shakllarda namoyon bo'lgan, ya'ni, asosan, band doirasida takror hosil qilib, band (to'rtlik)ning barcha misralarida, dastlabki uch misrasida, birinchi va uchinchi misralarida, ikkinchi va to'rtinchi misralarida, ikkinchi va uchinchi misralarida epifora takrorini hosil qilgan.

Erkin Vohidov epifora takroriga ko'plab murojaat qilgan. Epiforada, asosan, so'z takrorlanadi, shuningdek, so'z birikmasi shaklida takror kelishi ham kuzatiladi.

Umuman olganda, Erkin Vohidov she'riyatida takrorning epifora turi ko'plab qo'llangan bo'lib, har birida ma'lum uslubiy vazifa bajargan. Misralar oxiridagi ohangdoshlikni ta'minlagan.

Leksik takrorlar so'z shaklida namoyon bo'lar ekan, nazmiy tilda so'zlarning tashqi ko'rinishi ham ichki ma'no singari muhim ahamiyatga ega. She'rdagi misralarning mantiqan o'zaro singdirilishi, ayrim so'z – fikrlarning ajratib berilishi orqali alohida ta'sirchanlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fazliddin, S., Alisher, A., Azizbek, M., & Shoxistaxon, X. (2024). AZIM HOJIYEVNING LEKSIKOGRAFIKAGA OID MEROSI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 30-33.
2. Mamatqulov, A. (2022). YORMAT TOJIYEV NAZDIDA SINONIM AFFIKSLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 39-41.
3. Sharipov, F. G., & Mamatqulov, A. R. (2021). O'ZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGI HOLATI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 168-174.
4. Ermatov, I., Eshboyeva, F., & Mamatqulov, A. (2025). TO'RA SULAYMONNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 101-105.
5. Fazilat, E., Azizbek, M., & Ermatov, I. (2025). PRAGMATIKANING TILSHUNOSLIKNING BIR TARMOG'I SIFATIDAGI TA'RIFI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 192-195.
6. Mamatqulov, A. (2024). AZIM HOJIYEV LUG 'ATSHUNOS OLIM. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 525-259.
7. Shoxistaxon, X., Sayyora, Y., & Mamatqulov, A. (2024). QO 'SHMA SO 'ZLARNING VUJUDGA KELISHI HAQIDA. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 60-65.
8. Azizbek, M. HOZIRGI O 'ZBEK ADABIY TILINING TARIXIY TARAQQIYOTIDA LEKSEMALARINING MORFEMAGA O 'TISHI XUSUSIDAGI FARAZLAR. *PERSPECTIVES OF PHILOLOGY AND PRACTICAL POSSIBILITIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES*, 204.
9. Qushoqovich, A. O. K. (2022). Importance of using terms in English and uzbek.
10. Muratkulov, A. (2024). O 'ZBEK TILIDA ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING QO 'LLANILISHI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 174-176.
11. Tursunkulovich, M. A., Fazilat, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). O 'ZBEK TILIDA ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING QO 'LLANILISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 66-69.
12. Pardayeva, I., & Ro'ziqulov, S. (2025). ZARGARLIK TERMINLARINING TEMATIK TASNIFI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 94-96.
13. Doniyorovich, O. R. A., Xolbo'Tayevna, P. I., & O'G, R. Z. S. I. (2025). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMANING TIL BIRLIGI SIFATIDA O 'RGANLISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 205-208.
14. Ro'Ziqulov, S., Pardayeva, I., & Alisher, O. R. (2025). FE'LDA VALENTLIK. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 209-211.
15. Shohruh ilhom o'g, R. Z. (2024, May). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO 'Z TURKUMLARINING O 'RGANLISHI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 5, pp. 36-46).
16. Туйчиева, З. Х. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(4), 244-248.
17. Туыchieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(1), 75-82.
18. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. *Проблемы педагогика*, (7 (39)), 77-78.
19. Egamov, U. (2024). LEXICAL REPETITIONS IN THE POETRY OF USMON AZIM. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(10), 34-43.
20. Khamrokulovna, T. Z. (2021). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50).